

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**III RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2025

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.uz>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-176-6

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 245 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 3-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar” mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

ISBN 978-9910-09-176-6

Barcha huqular himoyalangan.

© Sciencesproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Atamuratova Dilafruz

"ISHTIROKIYUN", "QIZIL BAYROQ", "TURKISTON" GAZETALARIDA XIVA XONLIGI, XXSR
HAMDA XSSRGA OID XABARLAR VA ULARNING AHAMIYATI 7-9

Sultanov Samandar

XORAZM VOHASI VA QUYI ZARAFSHON VODIYSI BRONZA DAVRI MANZILGOHLARIDA
ARXEOLGIK TADQIQOTLAR NATIJALARI 10-12

Bobobekova Nargiza

JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI
FAOLIYATI TARIXI (XX ASR BOSHLARI) 13-19

IQTISODIYOT FANLARI

Tangirkulov Bekzod

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RESURLAR
SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI 20-24

FILOLOGIYA FANLARI

Azamatova Gulnoza

NEMIS TILIDAGI "EIN" SO'ZI VA UNING QO'LLANILISHI 25-27

Nazimova Himmatoy

EPOS JANRINING PAYDO BO'lishi VA SHAKLLANISH MASALALARI TAHLILI 28-31

Tadjiyeva Umida

MAQOLLAR TILSHUNOSLIK SOHASINING O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA 32-35

Matyaqubova Ozoda

FRANSUZ TILIDAGI GAP TARKIBLI FRAZEOLGIK
BIRLIKLAR VARIANTLARINING TURLARI 36-40

Qilicheva Shahlo

O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA QO'SHMA SO'ZLARNING MORFOLOGIK,
STRUKTURAL YASALISHI 41-45

Samandarova Nilufar

FRANSUZ TILIDA HARAKATGA YO'NALTIRILGAN FE'LLARNING
IFODA XUSUSIYATLARI 46-49

Jumanazarova Kamola

ABDULLA QODIRIYNING „O'TKAN KUNLAR" ROMANIDA
MILLIYLIKNING IFODALANISHI 50-52

Abdullayeva Gulnora

HOZIRGI NEMIS TILIDA "ES" KOMPONENTLI GAPLARNING MA'NOSI VA VAZIFALARI HAMDA
ULARNING O'ZBEK TILIDAGI SINTAKTIK EKVIVALENTLARI 53-56

YURIDIK FANLARI

Kараходжаева Окилахон

О ВЗАИМОДЕЙСТВИИ ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОРГАНОВ
ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ ПРИ ОСУЩЕСТВЛЕНИИ
ПАРЛАМЕНТСКОГО КОНТРОЛЯ 57-62

<i>Otamirzayev Oybek</i> YER OSTI SUVLARI HUQUQIY MUHOFAZASI YO'LIDAGI MUHIM QADAM	63-65
<i>Abdihakimov Samandar</i> SUD HAL QILUV QARORLARINI BEKOR QILISH YOKI O'ZGARTIRISH ASOSLARI TURLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	66-69
<i>Komilov Asadbek</i> MATBUOT ERKINLIGI BO'YICHA XALQARO STANDARTLAR	70-74
<i>Xudaibergenova Dilnoza</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MULK HUQUQIGA OID HUQUQIY ASOSLARNI TAKOMILLASHTIRISH	75-79
<i>Eraliyeva Malika</i> "INSON" IJTIMOIIY XIZMATLAR MARKAZLARI FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI: IJTIMOIIY XIZMATLARNING SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI	80-82
<i>Самигжонов Зилола</i> ПОНЯТИЕ, ПРИНЦИПЫ И КЛАССИФИКАЦИЯ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ИНОСТРАННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	83-87
<i>Asqarov Nodirbek</i> VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI G'AYRIIJTIMOIIY XATTI-HARAKATLARGA JALB ETGANLIK HOLATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA AMALIYOTDA YUZAGA KELAYOTGAN AYRIM MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI	88-92
<i>Тураев Абдуазим</i> ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕНИТЕНЦИАРНОЙ СИСТЕМЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	93-102
<i>Murodova Sojida</i> WHAT CAN UZBEKISTAN LEARN FROM CHINESE SMART COURTS?	103-107
<i>Akramova Sabrina</i> O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGININ HUQUQIY ASOSLARINI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR	108-111
<i>Шермухамедова Камилла</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ СДЕЛОК В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	112-116
<i>Саматова Шахзода</i> ПРОБЛЕМЫ ПРИМЕНЕНИЯ ОБЕСПЕЧИТЕЛЬНОГО ПЛАТЕЖА КАК СПОСОБА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИСПОЛНЕНИЯ ОБЯЗАТЕЛЬСТВА	117-120
<i>Акрамов Акмалжон</i> ГОСУДАРСТВЕННЫЙ БЮДЖЕТНЫЙ КОНТРОЛЬ: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ	121-125
<i>Гофуржонов Низомиддин</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНЦЕПЦИИ НАСИЛИЯ НАД ДЕТЬМИ В СОВРЕМЕННОМ МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ	126-132
<i>Акрамова Хилола</i> ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ И ЗАЩИТЫ ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ	133-136

<i>Safayev Javohir</i> XORIY DAVLATLARDA PARLAMENT TEKSHIRUVI: HUQUQIY MEKANIZMLAR VA AMALIY TAJRIBA	137-140
<i>Кучкорова Гулхаёт</i> РАЗВИТИЕ АДМИНИСТРАТИВНОГО ПРАВА В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	141-144
<i>Бобоева Муслима</i> ПРАВОВОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ КАК СУБЪЕКТА ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА	145-150
<i>Султонова Дурдона</i> АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ НА ЭЛЕКТРОННУЮ КОММЕРЦИЮ В КОНТЕКСТЕ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	151-157
<i>Мелсова Камила</i> ПОНЯТИЕ, ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И КЛАССИФИКАЦИЯ ПООЩРИТЕЛЬНЫХ НОРМ.....	158-162
<i>Soatboyeva Shoxnura</i> FUQAROLIK HUQUQIDA MULK HUQUQINI HUQUQIY HIMOYA QILISH INSTITUTINING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	163-166
<i>Qilichev Nosirbek</i> QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT SIFATIDA – KAM AHAMIYATLI QILMISHLARNING HUQUQIY TAHLILI	167-169
<i>Allamberganova Farida</i> ANGLO-SAKSON HUQUQIY TIZIMI DAVLATLARI TAJRIBASIDA ELEKTRON TIJORAT VA ISTE'MOLCHILARNING HUQUQIY HIMOYASI	170-175
<i>Turg'unboyev Abrorjon</i> XALQARO HUQUQDA ATROF-MUHITGA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN DAVLATLAR JAVOBGARLIGI ASOSLARI VA MUAMMOLAR	176-180
<i>Abdumalikov Otabek</i> AXBOROT OLISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI: AXBOROT TURLARI VA MANBALARINING HUQUQIY JIHATDAN TASNIFLANISHI	181-187
<i>Xursanov Shamsiddin</i> BARQAROR RIVOJLANISH TAMOYILLARINI XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR	188-192
<i>Adizova Nargiza</i> ELEKTRON TIJORAT SHARTNOMALARINING AN'ANAVIY TIJORATDAGI SHARTNOMALARDAN FARQI VA O'ZIGA XOSLIKLARI	193-196
<i>Omonkeldiyeva Sevara</i> O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING SHAKLLANISHI VA HUQUQIY ASOSLARI	197-199
<i>Anvarova Azizabonu</i> FUQAROLIK PROTSESSIDA MEDIATSIYANING HUQUQIY ASOSLARI	200-203
<i>Сайдалиева Ойсултанахон</i> ДОКТРИНА СНЯТИЯ КОРПОРАТИВНОЙ ВУАЛИ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРУГА ОТВЕТСТВЕННЫХ ЛИЦ	204-211

Qahramonova Sevinch

IJTIMOIIY ADOLAT PRINSIPINI TA'MINLASH:

KONSTITUSIYAVIIY-HUQUQIIY TAHLIL 212-215

Xolmo'minova Barchinoy

RAQAMLASHTIRISH TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIIY SOHALARGA, XUSUSAN, PENSIYA

TIZIMIGA TA'SIRI 216-220

Sadinov Shohboz

XORIJIY DAVLATLARDA ADVOKAT XIZMATIGA HAQ TO'LASHNING O'ZIGA XOS

XUSUSIYATLARI 221-226

Harifov Sobir

FUQAROLIK JAMIYATINING MA'NAVIY HAYOTIDA HUQUQIIY TARBIYANING O'RNI..... 227-231

PEDAGOGIIKA FANLARI

Turgunova Nilufar

CHARACTERISTICS OF IMPLEMENTING HEALTH-PROMOTING

TECHNOLOGIES IN INCLUSIVE EDUCATION SETTINGS 232-234

TIBBIYOT FANLARI

Жураев Жамол

ПРИЧИНЫ РЕЦИДИВА ПОСЛЕ ЛЕЧЕНИЯ ГЕПАТИТА С 235-237

Jumabaeva Miyasar, Xidoyatova Dilbar, Mansurova Nargiza

INSULTDA HARAKAT BUZILISHLARINI TRANSKRANIAL MAGNIT STIMULYATSIYA (TMS)

YORDAMIDA KORREKSIYA QILISHNI OPTIMALLASHTIRISH 238-244

FRANSUZ TILIDAGI GAP TARKIBLI FRAZELOGIK BIRLIKLAR VARIANTLARINING TURLARI

Matyaqubova Ozoda Masharipovna,
o'qituvchi, Urganch davlat universiteti
E-mail: matyakubovaozoda80@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada fransuz tilidagi Gap tarkibli frazeologik birliklar variantlarining turlari haqida gap boradi. Frazeologik variantlilik muammosi yuzasidan bildirilgan turli xil fikrlar tahlil qilingan va ularning barcha turlari misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: variantlilik turlari, frazeologizm komponenti, leksik birikma, grammatik struktura, morfologik variant.

TYPES OF VARIANTS OF PHRASEOLOGICAL UNITS OF SPEECH IN THE FRENCH LANGUAGE

Ozoda Masharipovna Matyaqubova,
Lecturer, Urgench State University

Abstract. This article examines the types of variants of phraseological units with gap content in the French language. It analyzes the various opinions expressed on the problem of phraseological variability and explains all their types using examples.

Key words: types of variation, phraseological component, lexical combination, grammatical structure, morphological variant.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-08>

Gap tarkibli frazeologizmlar til birligi sifatida shakl jihatidan turg'unligi ya'ni o'zgarmasligi bilan xarakterlanadi. Ba'zan bu barqarorlikni o'zgarmaydigan struktur-grammatik shakllanganlik hamda qat'iy belgilab qo'yilgan joylashuv tartibiga egalik bilan xarakterlanuvchi leksemalar to'plami sifatidagi frazeologik hosila tushunchasi bilan bog'lashadi. Haqiqatan ham shaklning turg'unligi – mustaqil hosil qilinadigan gaplardan farqli ravishda frazeologizmlarning muhim belgilaridan biridir. Biroq, frazeologik birlik til birligi sifatida kommunikatsiya jarayonida aniqlikni qo'lga kiritadi. Gap tarkibli frazeologik birliklarning ko'pchiligi kommunikativ ehtiyojlar ta'siri ostida ularning o'xshashligiga ta'sir ko'rsatmaydigan o'zgarishlarga duch kelishadi, aynan shu o'xshashliklar frazeologik birliklarni nisbatan turg'unlikka ega hosilalar sifatida baholashga imkon beradi.

O'z vazifasini muvaffaqiyatli bajarish – muloqot vositasi bo'lish uchun, til – malum darajadagi turg'unlikka ega bo'lishi kerak. Biroq "tilning kommunikativ vazifasi uning nisbiy turg'unligini ko'zda tutadi". Til va nutqning frazeologiya sohasidagi munosabatlari shundan iboratki, bir tomondan, frazeologik birliklar o'zining leksik tarkibini saqlab qolishga intiladi, boshqa tomondan esa frazeologik birliklarning qo'llanilish jarayonida ularni leksik qamrab olinganligining o'zgarishiga moyillik kuzatiladi. [1;70-71-b]

Keyingi yillarda frazeologik variantlilik muammosiga katta e'tibor qaratilyapti, chunki uning hal qilinishi frazeologiya nazariyasi uchun, yana shuningdek tillarni o'qitish amaliyoti, leksikografik va frazeografik ishlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologlarning bu muammoga qiziqishlarining ortishiga hamda bir qator tillarning faktik materiali asosida frazeologik variantlilikni tadqiq qilishga bag'ishlangan maxsus ishlarning soni ko'pligiga qaramasdan, u hali aniq va mukammal ma'noga ega bo'lgan izohni qo'lga kiritmadi. Bu til birliklarining o'zgarishi haqidagi umumiy ta'limotning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi bilan bog'liq. "Variantlilik muammosini o'rganishning murakkabligi lingvistik jarayonning o'zining murakkabligi bilan aloqador bo'lib, u yagona aktdan emas, balki mutlaqo har xil, bir-biriga ko'proq yoki kamroq bog'liq bo'lmagan holda kechadigan jarayonlarning umumiy natijalariga bog'liqdir. [2;210-213-b]

Frazeologiyaga muvofiq ravishda variantlilik masalasiga ilgari Sh. Balli tomonidan to'xtalib o'tilgan bo'lsa, nazariy jihatdan bu muammo V. V. Vinogradov tomonidan "Frazeologik birliklarning asosiy tiplari haqida" maqolasida ilgari surilgan bo'lib, yaxlit mulohazani ifodalovchi gap – frazeologik chatishma ichida xilma-xil grammatik o'zgarishlar va joyini o'zgartirishlar bemalol bo'lishi mumkin. [3;151-153-b]

Frazeologik variantlilik muammosi yuzasidan har xil nuqtai nazarlar mavjud. Fikrimizcha, eng maqbul nuqtayi nazar shuki, unga binoan frazeologizm o'xshashligining asosiy sharti yagona leksik tarkib va grammatik struktura bilan bir qatorda yagona obrazning mavjudligi hisoblanadi. A. G. Nazaryan tomonidan taklif qilingan va biz ko'rib chiqqan variantlarning ta'rifi obrazning birligi hamda ma'noviy mazmunning umumiyliigi bilan xarakterlanuvchi va shuningdek tilda bajarayotgan vazifasi bilan, ham o'zining kategorial ((leksik-grammatik) ma'nolari bilan mos keladigan frazeologik birliklarning turlariga biriktirilgan norma kabi javob beradi. [5;173-174-b]

1. Struktur-grammatik jihatdan Gap takkibli frazeologik birliklar (keyingi o'rinlarda GFB)o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- a) morfologik;
- b) sintaktik;
- v) pozitsion;
- g) orfografik.

2. Leksik.

3. Miqdoriy.

4. Aralash (qorishiq).

GFB variantlarining har bir turini alohida ko'rib chiqadigan bo'lsak, GFBlarda eng ko'p uchraydigan tiplardan biri morfologik variantdir :

1. Son kategoriyasi bo'yicha:

Il y a beau jour (beaux jours) "ancha ilgari ;

Le pari est ouvert (les paris sont ouverts) - ishning oqibati hali ma'lum emas ;

2.Artikl kategoriyasi bo'yicha (har xil artikllar bilan shakllantirish, artiklning tushirib qoldirilishi, artiklning determinativ bilan almashtirilishi):

C'est à faire pleurer les (des) pierres- bunga tosh ham chidamaydi ;

C'est (un) marché donné - bu boy berilib bo'lingan ish ;

Il sent le (son) vieux battu- anchadan buyon kaltak yemagan ko'rinadi ;

3. Predlog kategoriyasi bo'yicha (har xil predloglar bilan shakllantirish va predloglarning tushirib qoldirilishi):

Ça n'avance à (en) rien -bu hech narsaga olib kelmaydi, bu hech narsaani hal qilmaydi;

Morfologik variantlilik GFBlar tarkibidagi komponentlarning semantik qayta o'zgartirilganligiga yana bir marta ishontirishga xizmat qiladi. Bunday o'zgartirishda GFBlarning bir xilligi buzilmaydi.

Quyidagi misollarda sintaktik o'zgartirish hollarini ham kuzatish mumkin.

C'est un pas glissant (le pas est glissant) (fam.) - bu qaltis (xatarli) ish ;

Il aimerait (il)serait amoureux d'une) une chienne coiffée - u har bir ayolning ketidan yugurishga tayyor ;

Pozitsion va grafik variantlar juda kam sonli uchraydigan variantlar hisoblanadi.

On dira qu'il ne sait pas troubler l'eau (l'eau troubler) - yuvosh, qo'y og'zidan cho'p olmagan ko'rinadi ;

C'est l'eau et le feu (c'est le feu et l'eau) - bu yer bilan osmondek farq qiladi, bir-biriga aslo mos kelmaydigan narsa ;

Kuzatishlar ko'rsatadiki, GFBlarda frazeologizmning komponentlarini bu birlikning semantik bir xilligini buzmaydigan ideografik va stilistik sinonimlar bilan almashtirishdan iborat bo'lgan leksik variantlilik juda yaqqol ifodalangan.

GFBlar leksik tarkibining tahlili ko'rsatadiki, leksik variantlilik quyidagilar bo'yicha namoyon bo'lishi mumkin: Fe'l komponenti bilan.

Masalan: ***Le champ de bataille lui est resté - le champ de bataille lui est demeuré*** - jang maydoni uning ortida qoldi, u g'olib bo'lib chiqdi ;

Keltirilgan misolda ***rester, demeurer*** fe'llari sinonim hisoblanadilar, chunki ular umumiy ma'noni ifodalab, semantik invariant sifatida chiqayotgan obrazni saqlab qolishga ko'maklashadilar.

Quyidagi GFBlarda ham fe'l komponentlari sinonimik munosabatlarni xarakterlaydilar:

Il y en est sorti les bras nettes – il s'en est tiré les bras nettes –

u epchillik bilan qutulib qoldi, u suvdan quruq chiqdi, u osongina qutuldi ;

Il avalerait le diable – il mangerait le diable - u ho'kizni ham yamlamay yutadi ;

Misollardan ko'rinib turibdiki, sanab chiqilgan frazeologizmlarning tarkibida fe'l komponentlar-sinonimlarning o'zgarishi yuz beradi. Bu shu bilan bog'liqki, fe'llar « klassik predikatlar bo'lib, osongina sinonimik munosabatlarga kirishish qobiliyatiga egadir, bu munosabatlar denotativ mazmunga emas signifikativ mazmunga, ularning referensiya qobiliyatiga emas, ma'nosiga asoslanadi ». [3;151-153-b]

Shu bilan bir qatorda berilgan misollar shuni ko'rsatadiki, mustaqil qo'llanilganda sinonimik munosabatda bo'lmagan fe'l komponentlari bir-birini almashtirishlari mumkin. Masalan: ***La graisse ne l'étouffe pas (ne l'empêche par de courir)*** - u tarashadek ozg'in ;

Ce n'est (cela n'en vaut) pas la peine (fam.) - kerakmas, siz ovora bo'lmang ;

Il aura (entendra) de mes nouvelles (fam.) - men hali unga kimligimni ko'rsatib qo'yaman ;

Bu shu bilan izohlanadiki, o'zgarayotgan komponentlar ular o'rtasida assotsiativ aloqalarni o'rnatish mumkin bo'lgan tushunchalarni ifodalaydilar.

GFBlarning leksik variantliliği ot komponenti (ot yoki sifat) qo'llash usuli bilan ham namoyon bo'ladi.

La coupe déborde - Le vase déborde - sabr kosasi to'ldi ;

La mesure est somble - La mesure est pleine - ish juda chuqurlashdi ;

O'zgarayotgan komponentlarning semantik tadqiqoti ko'rsatadiki, GFBlarning tarkibida bitta o'sha yoki unga yaqin bo'lgan semantik maydonga tegishli bo'lgan komponentlarning o'zgarishi yuz beradi. Masalan:

C'est la femme qui porte les chaussures ; C'est la femme qui porte la culotte ; **"u xotining izmida, u xotini chizgan chizig'idan chiqa olmaydi"**

Une vache n'y retrouverait pas ses petits ; Une chatte n'y retrouverait pas ses petits - u yerda shunday tartibsizlikki! (It egasini tanimaydi!)

Un cochon n'y retrouverait pas ses petits - tushunib bo'lmaydigan; aji-buji ;

Ce n'est pas un aigle ; Ce n'est pas un phénix - u osmondagi yulduzni ololmaydi ;

Les mains lui démangent ; Les doigts lui démangent ; Les poings lui démangent - uning qo'li qichiyapti, biror ish qilgisi yoki urushgisi kelyapti.

To'plangan materialni tahlil qilishda, tadqiq qilinayotgan birliklar orasida hali lug'atda qayd qilinmagan frazeologizmlar variantlari mavjud. Misol uchun ***l'affaire est faite*** - ish qilindi, ish yo'lga qo'yildi GFBi yana bir qancha variantlarga ega: ***1'affaire est réglée (baclée, classée, jouée, arrangée)***. ***Ses actions montent*** - uning obro'si, nufuzi ortayapti.

Komponentlarining turlicha soni bilan xarakterlanadigan GFBlar alohida, yetarli darajada katta guruhga ajratiladi. Ko'pincha sonli (miqdoriy) variantlar gap frazeologik birliklarning boshidagi, oxiridagi yoki o'rtasidagi bitta yoki ber necha komponentlarni qisqartirish, kesib tashlash yo'li bilan, yoki yangi komponentlarni qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Masalan:

(Allons) saute, marquis! - quvonchdan sakra, o'zingdan mamnun bo'l ;

(Il n'y a) pas mèche - hech qanday imkoniyati yo'q, foydasiz, foydasi yo'q, befoyda, nima foydasi bor.

Brisons là (-dessus) - yetar endi, bas qilaylik, shu gapni to'xtataylik.

C'est kif-kif (bourricot) - hammasi bir; bir (fam.) xil; ikkalasi (hammasi) bir go'r.

Tu veux (toujours) courir - bekorga urinyapsan, senga buni ko'rish aslo (mutlaqo) nasib bo'lmaydi, buni tuyani dumi yerga tekkanda ko'rasan.

C'est (tout) le bout du monde - bu quyushqondan chiqish; bundan ham yomon (rasvo) bo'lishi mumkin emas; bo'lgancha bo'ldi ;

C'est son dada (favori) - bu uning sevgan, yaxshi ko'rgan narsasi;

Shuni ta'kidlash kerakki, gap komponentlarning qisqarishi yoki qo'shilishi haqida ketayotganini aniqlashga imkon beradigan dastlabki variant shaklini topish har doim ham oson emas.

Ayrim GFBlar bir qator belgilar bo'yicha farqlarni ko'rsatadi, bu aralash variantlar guruhini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Bundan tashqari variantlarning uchta tipi bir vaqtning o'zida birikishi mumkin. Masalan : ***(D'ici là) il coulera*** - ko'p vaqt (zamon) o'tadi (o'tib ketadi) ***(passera) bien de l'eau sous le(s) pont(s)*** (miqdoriy + morfologik + leksik variantlilik);

C'est midi (sonné), c'est midi moins cinq - iloji yo'q, hech uddalab bo'lmaydi, epaqaga keltirib bo'lmaydi; taqdirga tan berishga to'g'ri keladi ; boshqa iloj yo'q;

(leksik + leksik- stilistik + miqdoriy variantlilik).

Leksik, miqdoriy va sintaktik birikmalarning variantlarini biz qiyidagi GFBlarda uchratamiz:

Voilà le (grand ou gros) mot lâché - nihoyat fikrini bayon qildi;

– le mot (le grand ou gros) mot est lâché -bu bilan gap tamom ;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, struktur-grammatik, leksik, aralash variantlarning barcha ko'rinishlari bilan mavjudligi semantik yadroning buzilishiga olib kelmaydi, u har qanday sharoitlarda yaxlit bo'lib qolaveradi.

GFBlarning grammatik va leksik strukturasidagi o'zgarishlarni ko'rib chiqish ular barqarorligining dialektik xarakterini yana bir bor tasdiqlaydi, GFBlar qotib qolgan hosilalar emasligidan dalolat beradi. GFBlarning o'zgarishi – frazeologik birliklarning kommunikativ vazifasining kengayishiga va hozirgi tilning, bu holda, fransuz tilining frazeologik fondini boyishiga ko'maklashuvchi obyektiv qonuniyatlarga asoslangan xususiyatidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Арутюнова Н. Д. Предложение и его смысл: логико-семантические проблемы.- Москва., 1976. С.70-71.
2. Bally Ch. Traité de stylistique française. – P.: 1921. С.210-213.
3. В. В. Виноградов. Избранные труды. Лексикология и лексикография. -Москва., 1977. С.151-153.
4. Гак В.Г., Ганшина К.А. Новый французско-русский словарь. - М.: 2000.
5. Назарян А. Г. Фразеология современного французского языка. -Москва., 1976.С.173-174.
6. Мурадова Л.А. Гак.В.Г. Новый большой французско-русский фразеологический словарь. - М.: 2006.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATION G'OYA VA YECHIMLAR**
II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 3-iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent:
Scienceproblems team, 2025. – 245 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 3-iyun

ISBN 978-9910-09-176-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Sciences problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.